

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVAVIYASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
О'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH103
Raximova Moxigul Isroiljonovna

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH

Raximova Moxigul Isroiljonovna

University of Business and Science

Yashil iqtisodiyot kafedrasini mudiri, i.f.f.d. (PhD), dotsent

E-mail: rahimovamoxigul1989@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6197-2094

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik muhitini baholash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ayollar tadbirkorligi rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, bozorlarga kirish, ishbilarmonlik ko'nikmalari, huquqiy to'siqlar, axborotdan foydalanish imkoniyatlari hamda ish-oila muvozanati bilan bog'liq muammolar o'rganilgan. So'rovnoma ma'lumotlari asosida tadbirkorlik muhitini baholash amalga oshirilib, ayollar tadbirkorlik faoliyatini cheklayotgan asosiy to'siqlar aniqlangan. Tahlil natijalari moliyaviy resurslarga kirish, ish-oila muvozanatini ta'minlash va bozor imkoniyatlaridan foydalanish masalalari eng dolzarb muammolar ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida ayollar tadbirkorligi uchun qulay muhitni shakllantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, tadbirkorlik muhiti, baholash, Namangan viloyati, moliyaviy resurslar, bozorga kirish, ishbilarmonlik ko'nikmalari, huquqiy to'siqlar, axborotga kirish, ish-oila muvozanati, so'rovnoma tahlili, to'siqlar indeksi, institutsional qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy faollik, tadbirkorlik infratuzilmasi, raqobatbardoshlik, kompleks baholash, rivojlanish omillari.

Abstract. This article analyzes the assessment of the entrepreneurial environment in the development of women's entrepreneurship in Namangan region. The study examines the key factors influencing women's entrepreneurship, including access to financial resources, market entry, business skills, legal barriers, access to information, and work-life balance challenges. Based on survey data, the entrepreneurial environment is evaluated and the main barriers limiting women's entrepreneurial activity are identified. The results show that the most pressing issues are access to financial resources, maintaining work-life balance, and utilizing market opportunities. The study concludes with scientific proposals and practical recommendations aimed at creating a favorable environment for women's entrepreneurship.

Keywords: women's entrepreneurship, entrepreneurial environment, assessment, Namangan region, financial resources, market access, business skills, legal barriers, access to information, work-life balance, survey analysis, barrier index, institutional support, economic activity, entrepreneurial infrastructure, competitiveness, comprehensive assessment, development factors.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы оценки предпринимательской среды в развитии женского предпринимательства в Наманганской области. В исследовании изучены основные факторы, влияющие на развитие женского предпринимательства, включая доступ к финансовым ресурсам, выход на рынки, деловые навыки, правовые барьеры, доступ к информации, а также проблемы, связанные с балансом между работой и семьей. На основе данных анкетного опроса проведена оценка предпринимательской среды и выявлены ключевые препятствия, ограничивающие предпринимательскую активность женщин. Результаты анализа показали, что наиболее актуальными проблемами являются доступ к финансовым ресурсам, обеспечение баланса «работа-семья» и использование рыночных возможностей. В завершение исследования разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на формирование благоприятной среды для женского предпринимательства.

Ключевые слова: женское предпринимательство, предпринимательская среда, оценка, Наманганская область, финансовые ресурсы, доступ к рынкам, деловые навыки, правовые барьеры, доступ к информации, баланс «работа-семья», анкетный анализ, индекс барьеров, институциональная поддержка, экономическая активность, предпринимательская инфраструктура, конкурентоспособность, комплексная оценка, факторы развития.



KIRISH

Bugungi kunda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, aholi bandligini oshirish, oilaviy daromadlarni ko'paytirish va hududiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini kuchaytirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish hamda ular faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik muhitini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va bozor infratuzilmasiga kirishini yengillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu yo'nalishda hududlar kesimida muayyan farqlar saqlanib qolmoqda. Xususan, Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy, institutsional, huquqiy, axborot va ijtimoiy omillarning ta'siri sezilarli bo'lib qolmoqda. Bu esa mazkur hududda tadbirkorlik muhitini aniq ko'rsatkichlar asosida baholash zaruratini yuzaga keltiradi [1].

Tadbirkorlik muhiti ayollar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, yuritish va kengaytirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuasini ifodalaydi. Ushbu muhitning qay darajada qulay yoki cheklangan ekanligi ayollarning tadbirkorlikka kirib kelish darajasiga, biznes yuritish faolligiga, bozorda mustahkam o'rin egallashiga va iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik muhitini baholash orqali ayollar tadbirkorligi rivojiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammo va cheklovlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik muhitini baholash, uning asosiy muammolari jihatlarini tahlil qilish hamda ushbu sohani yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar so'rovnoma ma'lumotlari asosida tahlil qilinib, ularning tadbirkorlik muhitiga ta'siri baholanadi. Natijada hududda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalishlarni belgilash imkoniyati yaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini baholash, shuningdek, tadbirkorlik muhitining ushbu jarayonga ta'sirini o'rganish masalalari xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tomonidan turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligi asosan gender tengligi, iqtisodiy faollik, moliyaviy resurslarga kirish, boshqaruv ko'nikmalari, innovatsion faollik va institutsional muhit bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Bu yondashuvlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti barqarorligi, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi muhit omillariga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda huquqiy shart-sharoitlar, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, ta'lim va axborot resurslariga kirish, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari asosiy baholash yo'nalishlari sifatida ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, ayollarning biznes yuritishdagi imkoniyatlari faqat iqtisodiy resurslar bilan emas, balki institutsional va ijtimoiy muhit bilan ham chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi [2].

MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida esa ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ko'proq o'tish iqtisodiyoti sharoiti, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, bandlikni ta'minlash va oilaviy biznesni rivojlantirish nuqtai nazaridan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligi iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, kam ta'minlangan qatlamlar daromadini oshirish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatishning samarali vositasi sifatida talqin qilinadi [3].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari, hududlar kesimida rivojlanish xususiyatlari va samaradorlikni baholash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ayrim tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligining bandlik, daromadlar, eksport, xizmat ko'rsatish va oilaviy biznes rivojiga ta'siri yoritilgan bo'lsa, boshqa ishlarida uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy to'siqlar tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyatida ayollar tadbirkorlik muhitini kompleks baholash, uni integral yondashuv asosida tahlil qilish va aniq hudud misolida chuqur o'rganish masalalari yetarlicha to'liq yoritilmagan.

Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik muhitini baholash mavzusi ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik muhitini baholash uchun tizimli, qiyosiy, tahliliy va sotsiologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida avvalo ayollar tadbirkorligi rivojiga ta'sir etuvchi nazariy va amaliy omillar ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida o'rganildi. Bu esa mavzuning nazariy asoslarini shakllantirish va tadbirkorlik muhitini baholashga xizmat qiluvchi asosiy mezonlarni belgilash imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik bazasini Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tashkil etdi. So'rovnoma jarayonida ayollar tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, bozorga chiqish darajasi, mijozlar bilan aloqa o'rnatish, ishbilarmonlik ko'nikmalari, internet va axborotdan foydalanish imkoniyatlari, huquqiy va me'yoriy to'siqlar, shuningdek, ish va oila o'rtasidagi muvozanat bilan bog'liq holatlar o'rganildi. So'rovnoma natijalari foiz ko'rsatkichlari asosida umumlashtirilib, har bir omilning ayollar tadbirkorligi rivojiga ta'sir darajasi aniqlandi.


Tahlil jarayonida tavsifiy tahlil usuli orqali tadbirkorlik muhitini shakllantiruvchi omillarning holati baholandi, qiyosiy tahlil orqali esa ularning o'zaro farqi va ustuvorlik darajasi aniqlandi. Shuningdek, tadbirkorlik muhitiga salbiy ta'sir etuvchi to'siqlarni aniqlashda guruhlash va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Bu yondashuv ayollar tadbirkorlik faoliyatini cheklayotgan omillarni iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va institutsional guruhlarga ajratib tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotda tadbirkorlik muhitini baholashda kompleks yondashuv qo'llanilib, so'rovnoma natijalari asosida asosiy muammolarning nisbiy ahamiyati belgilandi. Bunda eng yuqori ulushga ega bo'lgan omillar ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga kuchli to'siq sifatida baholandi. Metodologik jihatdan ushbu yondashuv tadbirkorlik muhitining amaldagi holatini aniqlash, uning kuchli va zaif jihatlarini belgilash hamda aniq amaliy takliflar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik muhitini baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida asosiy omillar tahlil qilindi. Ushbu tahlil ayollar tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni aniqlash imkonini berdi.

Quyidagi rasmda ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi asosiy muammolarning taqsimoti keltirilgan (1-rasm).

Tahlil natijalariga ko'ra, ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda eng katta to'siqlardan biri sifatida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi qayd etilgan bo'lib, respondentlarning 47%i ushbu omilni asosiy muammo sifatida baholagan. Bu holat ayollar tadbirkorlik subyektlari uchun kredit resurslariga kirish, garov ta'minoti va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatadi [4].



1-rasm. Namangan viloyatida tadbirkor ayollar duch kelayotgan umumiy to'siqlar

Ikkinchi muhim omil sifatida ish va oila o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammosi qayd etilgan bo'lib, 45% respondentlar ushbu holatni jiddiy to'siq sifatida baholagan. Bu esa ayollar tadbirkorlik faoliyatida ijtimoiy omillarning ham muhim o'rin tutishini anglatadi. Shuningdek, bozorga kirish va mijozlar bilan aloqa o'rnatish bilan bog'liq muammolar 40–42% atrofida baholangan bo'lib, bu tadbirkorlik infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Internet va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, ishbilarmonlik ko'nikmalari yetishmasligi ham o'rtacha darajadagi to'siqlar sifatida qayd etilgan.



Tahlil jarayonida omillar ta'sir darajasiga ko'ra guruhlandi. Jumladan, moliyaviy resurslar va ish-oila muvozanati yuqori darajadagi to'siqlar guruhiga kiritildi, bozorga kirish va axborot bilan bog'liq omillar o'rtacha darajadagi to'siqlar sifatida baholandi, ayrim institutsional va huquqiy omillar esa nisbatan past ta'sir darajasiga ega ekani aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik muhiti hali to'liq shakllanmagan bo'lib, uni takomillashtirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Xususan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish va ayollar uchun qulay ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik muhiti muhim o'rin tutadi va uning holati ayollarning biznes yuritish faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlillar asosida ayollar tadbirkorligi rivojiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, ish va oila o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammolari, bozorga kirishdagi qiyinchiliklar, axborot va internet resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining yetarli emasligi aniqlandi [5]. Bu holat hududda ayollar tadbirkorligi uchun mavjud muhitni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda faqat moliyaviy yordamning o'zi yetarli emas, balki institutsional, axborot, tashkiliy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari ham kuchaytirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik muhitini baholash ayollar faoliyatini cheklayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, ayollar tadbirkorlari uchun imtiyozli kreditlar, mikromoliyalashtirish vositalari va kafillik mexanizmlarini kengaytirish orqali moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, ayollar tadbirkorlarining bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish uchun savdo platformalari, kooperatsiya aloqalari va marketing xizmatlarini rivojlantirish zarur. Uchinchidan, ularning tadbirkorlik ko'nikmalari, raqamli savodxonligi va biznesni boshqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv va trening dasturlarini keng joriy etish lozim [6]. To'rtinchidan, ish va oila o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy infratuzilma va xizmatlar tizimini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Beshinchidan, ayollar tadbirkorligi uchun huquqiy, axborot va konsultatsion xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali tadbirkorlik muhitining institutsional asoslarini mustahkamlash zarur [7].

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatida ayollar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda tadbirkorlik muhitini kompleks baholash va uni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga, xotin-qizlar iqtisodiy faolligini oshirishga va hududiy iqtisodiyot samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Women, Business and the Law 2024. — Washington, DC: World Bank, 2024.
2. OECD. The Missing Entrepreneurs 2023: Policies for Inclusive Entrepreneurship. — Paris: OECD Publishing, 2023.
3. UNDP Uzbekistan. Women Entrepreneurs in Uzbekistan: Challenges and Opportunities. — Tashkent: United Nations Development Programme, 2024.
4. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari.
5. O'zbekistonda ayollar tadbirkorligining huquqiy va institutsional asoslari hamda rivojlanish istiqbollari // Innovations in Science and Technologies. — 2025. — №2. — ISSN: 3030-3451.
6. Rahimova M.I. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni baholashning nazariy-metodologik asoslari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — Toshkent, 2026. — №3. — B. 1296–1299.
7. Rahimova M.I. Ayollar tadbirkorlik faoliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida) // Muhandislik va iqtisodiyot. — 2025. — №12.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100